



Nilufar MATXOLIQOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: nilufar260783@gmail.com

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti U.Abdullayeva taqrizi asosida

PHRASEOLOGICAL SYNONYMS WITH VERB COMPONENTS AND THEIR STRUCTURAL PECULIARITIES

Annotation

Each language has its own rich synonymous means, and lexical, grammatical, phraseological, and lexical-phraseological synonyms are invaluable resources of the language. Appropriate and purposeful use of this wealth makes the speech effective and expressive. That is why poets and writers, famous masters of words, have always paid special attention to the appropriate use of the synonymous richness of the language. In linguistics, the study of the semantic properties of phraseological units reveals the presence of the phenomena of phraseological polysemy, phraseological synonymy, phraseological antonymy, phraseological homonymy and paronymy. This article discusses the structural features of phraseological synonyms with a verbal component in the German language.

Key words: phraseology, phraseological synonymy, main component, synonym series, group of synonyms, phraseological unit, phraseological compound, phrase.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ СИНОНИМЫ С ГЛАГОЛЬНЫМИ КОМПОНЕНТАМИ И ИХ СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

Каждый язык имеет свои богатые синонимические средства, а лексические, грамматические, фразеологические и лексико-фразеологические синонимы являются бесценным ресурсом языка. Уместное и целенаправленное использование этого богатства делает речь эффективной и выразительной. Вот почему поэты и писатели, известные мастера слова, всегда уделяли особое внимание уместному использованию синонимического богатства языка. В языкознании изучение семантических свойств фразеологизмов выявляет наличие в них явлений фразеологической полисемии, фразеологической синонимии, фразеологической антонимии, фразеологической омонимии, паронимии. В данной статье рассматриваются структурные особенности фразеологических синонимов с глагольным компонентом в немецком языке.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая синонимия, главный компонент, синонимический ряд, группа синонимов, фразеологическая единица, фразеологический состав, словосочетание.

FE'L KOMPONENTLI FRAZEOLGIK SINONIMLAR VA ULARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Har bir til o'zining boy sinonimik vositalariga ega bo'lib, lug'aviy, grammatik, frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlar tilning bebaho boyligi sanaladi. Bu boylikdan o'rinli va maqsadga muvofiq holda foydalanish nutqning ta'sirchan va ifodali bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar, mashhur so'z ustalari tilning sinonimik boyligidan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor berib kelganlar. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va paronimiya hodisalari borligi aniqlangan. Ushbu maqolada nemis tilidagi fe'l komponentli frazeologik sinonimlarning struktural xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik sinonimiya, asosiy komponent, sinonimik qator, sinonimlar guruhi, frazeologik birlik, frazeologik birikma, ibora.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda har bir insondan hech bo'lmaganda bitta xorijiy tilni bilishi talab etilmoqda. Chunki, u boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, urf odatlari, mentalitetini bilish bilan bir qatorda, ularning ilm-fan, texnika sohasida erishayotgan yutuqlari, tajribalaridan keng foydalanib amaliyotda qo'llash natijasida taraqqiyotga erishishni ta'minlaydi. Shuning uchun davlat rahbari va hukumat tomonidan chet tillarni o'qitish hamda o'rganishga alohida e'tibor qaratilib ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi [1]. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zining ma'ruzalarida "biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliyogoh bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart" ekanligini ta'kidlagan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslik fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan boyitadigan frazeologiya -

tilning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositadir. Frazeologik birliklar dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida tadqiqot ob'ektining markazini tashkil etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologik sinonimiya ko'pgina tadqiqotchilar e'tiborini tortgan masala bo'lib, frazeologik sinonimiya muammosini o'rganish va uni turli tillar asosida tahlil qilish 1950-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi va bu frazeologiyaning lingvistik fan sifatida rivojlanishi natijasi sanaladi. Dastlab frazeologik sinonimiya masalasi rus olimlari tomonidan g'arb tillari: ingliz, nemis va fransuz tillari materiallari asosida yoritildi. Keyinroq esa rus tili frazeologik sinonimiyasini o'rganish ham keng ko'lamda boshlab yuborildi. "Sinonimiya" terminini frazeologik birliklarga nisbatan birinchi bo'lib A.V.Kunin [3] tatbiq etgan.

V.V.Vinogradovning fikricha, leksikologiyada turli tovushlardan iborat bo'lgan so'zlar o'zaro bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'no-mazmun anglatishi mumkin bo'lganidek, frazeologiyada ham struktural jihatdan turli komponentdan tashkil topgan bo'lishiga qaramasdan, mazmun jihatidan mutlaq bir-biriga mos keladigan yoki ma'lum ma'no o'ttenkalariga ko'ra umumiy ma'noga ega bo'lgan turg'un birikmalarni kuzatish mumkin [4]. Rus tilshunosi Yu.D.Apresyan frazeologik sinonimiya hodisasini tadqiq etgan birinchi tilshunos olim bo'lib, uning nomzodlik dissertatsiyasi ingliz tilidagi fe'l+ot komponentli frazeologik sinonimlar tadqiqiga bag'ishlanadi [5]. Frazeologik sinonimiya o'ziga oid tadqiqotlarda Yu.D.Apresyaning qarashlari alohida o'ringa ega. Biroq uning frazeologik sinonimlar o'rtasidagi o'zaro almashimishlik mezoni bir qator tanqidlarga sabab bo'lgan. Rus tilshunosligida frazeologik sinonimiya masalalari V.P.Jukov tomonidan o'rganilgan bo'lsa, [6] o'zbek tilshunosligida frazeologik sinonimiya masalalari Sh.Rahmatullayev [7], B.Yo'ldoshev [8], M.Vafojeva [9] tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Frazeologik birikmalarning o'ziga xos asosiy uch xususiyati: polileksiklik, turg'unlik va idiomalashganlikdan iboratdir. Polileksiklik deganda, frazeologizmning eng kamida ikki komponentdan to'ndan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvini nazarda tutiladi. Morfologik jihatdan olib qaralganda, frazeologik birliklar turli xil komponentlardan tashkil topadi. Ularning orasida ayniqsa eng ko'p tarqalgan turi fe'l komponentli birikmalar bo'lib, bunday frazeologik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular ot, sifat yoki ravish, hamda fe'l bilan o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi mumkin. [10] Frazeologizmlar ham so'z turkumlari kabi gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki kesim vazifasida qo'llanilishi mumkin.

1. Asosiy tarkibi ot bilan uyg'unlashgan fe'li birikmalar:

Quyidagi jadvallarda fe'l komponentli frazeologik sinonimlarning tuzilishi jihatidan o'zaro o'xshashliklari va tafovutlarini aniqlash mumkin:

Jemanden zur Ordnung rufen		Tartibga chaqirib qo'yimoq, adabini bermoq, ta'zirini bermoq	
Nö	Frazeologizmlar	Ularning strukturasi	Misol
1	J-m den Kopf waschen	Artikli ot+fe'l	Der Trainer wird dem Brasilianer gehörig den Kopf waschen .
2	J-m die Leviten lesen	Artikli ot+fe'l	„Ich glaube, denen muss mal jemand die Leviten lesen! “
3	J-m den Marsch blasen	Artikli ot+fe'l	Daddy habe ich ans Operettentheater gebracht. Der Intendant wollte erst nicht. Aber ich hab mir den Mann kommen lassen und ihm ordentlich den Marsch geblasen .
4	J-m Moritz lehren	Artiklsiz ot+fe'l	Wenn mein Sohn dir weiterhin mit diesem Unsinn in den Ohren liegt, werde ich ihn Moritz lehren!
5	J-m die richtigen Flötentöne beibringen	Sifat aniqlovchili yoyiq ot+fe'l	Mit viel Strenge brachte er seinem Sohn die richtigen Flötentöne bei .

Jadvaldan ma'lumki, ushbu 1, 2, 3, 4 - frazeologik sinonimlarning barchasi asosiy tarkibi artiklli va artiklsiz ot bilan uyg'unlashgan fe'li birikmalardan iborat bo'lsa, 5 - frazeologik birikma esa sifat aniqlovchili yoyiq otdan tashkil topgan. Barcha misollarda ibora kesim vazifasida kelgan. Chunki ibora tarkibida fe'l mavjud: *Der Trainer wird dem*

- Artiklli yoki artiklsiz ot bilan: *die Leviten lesen, Mode sein;*
- Sifat aniqlovchili yoyiq ot bilan: *den dicken Wilhelm spielen, den blauen Wunder erleben, keinen guten Faden spinnen;*
- Predlogli yoyiq ot bilan: *die Katze im Sack kaufen, den Boden unter den Füßen verlieren;*
- Juft so'zlar bilan: *Haut und Knochen sein, Himmel und Erde in Bewegung setzen;*
- Predlogli ot yoki yoyiq aniqlovchi (sifat, olmosh, son yordamida): *aus den Ärmeln schütteln, auf dem trockenen sitzen, auf der Hut sein;*
- Predlogli juft so'zlar bilan: *vom Regen in die Traufe kommen.*

2. Asosiy tarkibi sifat yoki ravish bilan ifodalangan bo'lishi mumkin:

- Sodda yig'iq tarkibli: *sich kaputt lachen, langsam schalten;*
- Predlogli: *jemanden für dumm verkaufen;*
- Predlogli yoyiq: *jmdm schwer im Magen liegen, weg vom Fenster sein;*
- Sifat va ravishl juft so'zlar: *etw. hoch und heilig versprechen, gäng und gäbe sein.*

3. Asosiy tarkibi ikki fe'ldan iborat bo'lishi mumkin:

- Boshlang'ich komponent+asosiy fe'l+yordamchi fe'l: *(keine) Bäume ausreißen können;*
- Boshlang'ich komponent+ikki asosiy fe'l: *die Engel im Himmel singen hören, sich den Wind um die Ohren wehen lassen;*
- Boshlang'ich komponentsiz modal fe'li konstruksiyalar: *jemandem etwas glauben machen wollen, mit jmdm gut können, daran glauben müssen;*
- Yordamchi modal fe'lsiz konstruksiyalar: *jemandem zu nehmen wissen, mit sich reden lassen;*
- Sifatdosh +fe'li konstruksiyalar: *etwas dahingestellt sein lassen.*

Brasilianer gehörig den Kopf waschen. Lekin ayrim hollarda frazeologik birikmalar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifasida ham kelishi mumkin: *Dem Brasilianer gehörig den Kopf gewaschener Trainer ist aus Argentinien.* Ushbu gapda esa ibora aniqlovchi bo'lib kelgan.

Sich in einer schlechten (finanziellen) Lage befinden		Tang holda bo'moq, qurib qolmoq, cho'ntagi qurib qolmoq	
Nö	Frazeologizmlar	Ularning strukturasi	Misol
1	Auf dem Trockenen sitzen	Predlogli yoyiq aniqlovchi+fe'l	„Wer im Rentenalter nicht plötzlich auf dem Trockenen sitzen will, sollte bei der privaten Altersvorsorge die Inflationsrate mitberücksichtigen.“
2	Im Dreck sitzen	Predlogli ot+fe'l	Dieser Fehlschlag hat uns gerade noch gefehlt . Jetzt sitzen wir ganz schön im Dreck .
3	In der Tinte sitzen	Predlogli ot+fe'l	Fast hätte Buchereileiterin Christine in der Tinte gesessen . 300 Bücherkisten hatte sie für das große Einpacken in der Bucherei bestellt, dann entschied sie sich aber doch, weitere 600 Kisten nachzufordern.
4	In die Klemme geraten sein	Predlogli ot+fe'l	Er ist doch ohne Schuld in die Klemme geraten! – Das ist schon möglich! Aber das interessiert die Bank nicht.
5	Schwindsucht im Geldbeutel haben	Predlogli yoyiq ot+fe'l	Mein Freund hat eine Schwindsucht im Geldbeutel .

Yuqoridagi misollarda ham barcha frazeologizmlar ot+fe'l birikmasidan tashkil topgan. 1, 2, 3, 4, 5, 6 - iboralarda fe'l predlogli ot bilan birikkan bo'lsa, 7-iborada esa fe'lning

predlogli yoyiq ot bilan bilan birikuvini kuzatish mumkin. Barcha gaplarda frazeologizmlar kesim vazifasida kelgan.

Ein Kind erwarten		Farzand kutmoq, homilador bo'lmoq, bo'yida bo'lmoq	
№	Frazeologizmlar	Ularning strukturasi	Misol
1	In anderen Umständen sein	Predlogli yoyiq ot+fe'l	Das Mädchen war in anderen Umständen . – Sie war schwanger? – Ja, im zweiten Monat.
2	Guter Hoffnung sein	Qaratqich aniqlovchili ot+fe'l	Früher sagte man von einer schwangeren Frau, sie sei „guter Hoffnung“ .
3	Den Storch in die Beine gebissen haben	Boshlang'ch fe'l+iyordamchi fe'l komponent+asosiy	Weiß du schon Erika, dass der Storch Tante Anna ins Bein gebissen hat?
4	Beim Klapperstorch angerufen haben	Boshlang'ch fe'l+iyordamchi fe'l komponent+asosiy	Na, Frau Schmidt, Sie haben wohl schon wieder beim Klapperstorch angerufen ? Das wieviele ist es denn?
5	Für zwei essen müssen	Modal fe'li konstruksiya	Müllers Tochter muss nun für zwei essen . Man sieht noch nichts, aber ich weiß es von ihrer Mutter.
6	Gesegneten Leibes sein	Qaratqich aniqlovchili ot+fe'l	Als der Graf heimkehrte, berichtete ihm der Kammerdiener, die Gräditige sei gesegneten Leibes . Das machte ihn stutzig.
7	Etw. unter der Schürze tragen	Predlogli ot+fe'l	Als die Kollegen zum Frühstück in der Kantine saßen, sah man es ganz deutlich Inge trägt etwas unter ihrer Schürze . Da freuten sich alle und sie gaben eine Runde Kaffee aus.
8	Ein Kind unter dem Herze tragen	Predlogli yoyiq ot+fe'l	„Frisch vermählt trägt die junge Alena schon bald ein Kind unter dem Herzen “.

Xulosa va takliflar. Yuqorida uchta frazeologik sinonimlar guruhiga tegishli bo'lgan jami 18 ta sinonim iboralar tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, fe'l komponentli frazeologik birliklar turli komponentlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin, ammo ma'lum bir sinonimik guruhga tegishli bo'lgan frazeologik

birliklar esa, deyarli bir xil tuzilishga ega bo'ladi. Shuningdek ularning aksariyati o'tli (artikli yoki artiklsiz, predlogli yoki yoyiq aniqlovchili) birikmalardan tashkil topadi. Fe'l komponentli frazeologizmlarning gapdagi sintaktik vazifasi gapning sintaktik jihatdan tuzilishiga bog'liq. Shunga ko'ra frazeologik sinonimlar gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki kesim vazifasida qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 6 май куни чет тилларини ўрганишни такомиллаштириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши маърузаси. Халқ сўзи. 2021 йил 7 май.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштиришни самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 312-сонли қарори. <https://www.lex.uz/docs/5431845>
3. Кунин А.В. Фраzeология современного английского языка. -Москва. Международные отношения, 1972. -С. 289.
4. Виноградов В. В. Лексикология и лексикография. – М., 1977.
5. Апресян Ю.Д. Фраzeологические синонимы типа “глагол+существительное” в современном английском языке. Автореферат диссертации. М., 1956. - С.5.
6. Жуков В.П. Русская фраzeология. -М.: Высшая школа, 1986. - С. 310.
7. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фраzeологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. –Б.31.
8. Yo'ldoshev В. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фраzeологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Тошкент, 1993.-Б.86.
9. Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фраzeологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили.// f.n.diss. Т.: 2009.-Б.78.
10. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2.durchgeschene und ergänzte Auflage. -Tübingen, Narr-Verlag, 1996. - S. 178.
11. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 3. Aufl., - Berlin, Erich Schmidt Verlag, 2007. - S. 240.
12. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -Тошкент: 1974, 12- бет.
13. 13. Schemann H. “Synonymwörterbuch der deutschen Redensarten”, - Stuttgart, Ernst Klett Verlag, 1990. -S.860.
14. Friedrich W. Moderne deutsche Idiomatik. Alphabethisches Wörterbuch mit
15. Definitionen und Beispielen. München, Max Hueber Verlag, 1976. –S. 570.